

SARBADORLAR HARAKATI VA UNING 1360-1370-YILLARDA CHIG'ATOY ULUSI SIYOSIY HAYOTIGA TA'SIRI

Boymurodov Shahzod Bahodir o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-kurs magistranti

(+998-90-018-56-56)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sarbadorlar harakatining paydo bo'lishi, siyosiy faoliyati, uning Movarounnahr tarixidagi o'rni hamda 1360-1370-yillarda Chig'atoy ulusi siyosiy tarixidagi qisqa faoliyati haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: sarbadorlar, mo'g'ullar, Abu Bakr Kalaviy, Mavlonzoda, Xurdaki Buxoriy, Amir Temur, Ilyosxo'ja, Loy jangi

Аннотация: В данной статье представлены сведения о возникновении движения Сарбадор, его политической деятельности, его месте в истории Моваруннахра, а также его краткой деятельности в политической истории племени Чигатай в 1360-1370-х годах.

Ключевые слова: генералы, монголы, Абу Бакр Калави, Мавлонзаде, Хурдаки Бухари, Амир Темур, Ильяшоджа, Грязевой бой

Abstract: This article provides information about the emergence of the Sarbador movement, its political activity, its place in the history of Movarounnahr, and its brief activity in the political history of the Chigatai tribe in the 1360s and 1370s.

Key words: generals, Mongols, Abu Bakr Kalavi, Mavlonzada, Khurdaki Bukhari, Amir Temur, Ilyashoja, Mud battle

Tarixdan ma'lumki, 1365-yil bahorida Mo'g'uliston xoni Ilyoshojaxon Movarounnahrqa qo'shin tortadi. Unga qarshi mamlakat mudofaasini tashkil etish uchun Amir Husayn va uning do'sti Amir Temurlar katta qo'shin bilan o'tlanadilar. Bugungi Chinoz va Toshkent oralig'ida tarixda "Loy jangi" nomi bilan shuhrat topgan muhorabada ittifoqchilar yengiladi. Ilyoshoja Samarqandni ishg'ol qilmoqchi bo'lganida shaharda bosqinchilarga qarshi o'zlarini "sarbador", ya'ni "dushmanga taslim bo'lsak, boshimiz dorda bo'lsin" degan qasamiy shior bilan atagan shaharning barcha tabaqalaridan iborat aholi mudofaa choralarini ko'radilar. Shahar xalqi orasida kurashga targ'ib qiluvchilar – madrasa mudarrisi Mavlonozoda Samarqandiy (Muiniddin Natanziy uni talaba deb yozadi), mergan Xo'rdak Buxoriy va hunarmandlar peshvosi Abu Bakr Kalaviy naddoflar mo'g'ullarga qarshi kurashni targ'ib qiladi hamda uch kecha-kunduz mudofaa jangiga tayyorgarlik ko'rishadi. Mo'g'ullar qo'shini shaharning markaziy ko'chasiga kirgach, barcha mudofaachilar dushmanga zarba berishga kirishishadi. Mo'g'ullar bu kutilmagan zarbadan katta talafot ko'radi. Bundan tashqari, ularning otlariga o'lat tegib, yoppasiga qirila boshlaydi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, har to'rt mo'g'uldan bittasidagina ot qolgan edi. Natijada mo'g'ullar shaharni tark etib, Samarqand atrofidagi ayrim qishloqlarni talab, Mo'g'ulistonga qaytib ketadilar. Samarqand sarbadorlar qo'liga o'tadi. Ularning boshqaruvdagi tajribasizligi aholi o'rtasida bir qator noroziliklarni, tartibsizliklarni ham keltirib chiqargan. Xususan, ular boylar, mulkdorlarning molini

xatga oldirib, kambag'allarga bo'lib bergan, ayrim soliq va yig'implarni bekor qilgan, ayrim tabaqa vakillariga keng erkinliklar bergan. Bu – ba'zi boshboshdoqliklarning ham kelib chiqishiga sabab bo'lgan edi. Shu tariqa, sarbadorlar qish fasli davomida Samarqandda hukmronlik qilishdi. Bu voqealardan Amudaryo janubida bo'lgan amirlar – Amir Husayn va Amir Temur xabar topib, sarbadorlar bilan muloqotni yo'lga qo'yadi. Nizomiddin Shomiyning yozishicha, 1366 yilning “bahor fasli kelgach, amir Husayn lashkar tortib Samarqandga keldi. Mavlonozoda Samarqandiy, Xo'rdak Buxoriy va Abu Bakr Naddof uchovlon sarbador bo'lishib, bezori odamlar ular atrofiga yig'ilgan edi. Ular Jete lashkariga Samarqandga kirishiga yo'l qo'yishmadi, lashkar o'qizlik qilib ortiq to'xtab turmadi. U uch kishi esa sardorlikdan mag'rurlanib ketib, jabru zulmini hunar qilib oldilar. Amir Husayn Samarqandga etgach, sarbadorlarni dorga osib, xalqni ularning sharridan qutqarishga buyurdi. Amir Sohibqiron Mavlonozoda uchun shafolat tilab, uni xalos etdi”.

Yuqoridagi voqealar Amir Temurning dastlabki yillardagi siyosiy faoliyati bilan bog'liq voqealardan biri bu Samarqanddagi sarbadorlar harakati masalasidir. Ma'lumki, sovet tarixshunosligida “sarbadorlar” “xalq qahramonlari”, ozodlik harakati vakillari degan xulosa ustuvorlik qilar edi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa bu harakatga bo'lgan munosabat bir muncha bahslidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida “Sarbadorlar” harakati badiiy adabiyotda adib Muhammad Alining romanida tarixiy faktlarga mos holda yoritilgan [1,240]. Aytish joiz, roman hali asosiy yozma manbalar to'liq tarjima etilmagan, Amir Temur hayoti va faoliyati yaxshi o'rganilmagan bir sharoitda yozilsa-da, haqqoniy yoritilgan. Romanda bu davr ijtimoiy-siyosiy ahvolini muallif “taxtsiz mamlakat” deb tasvirlaydi, sarbadorlarni esa zamonning eng ilg'or kishilari deb hisoblab, ularning maqsadi Al-Forobiy orzu qilgan “fozil jamoa tuzish” edi va shu maqsadda ular boshlarini dorga tikkanlar degan umumiy xulosaga keladi.

B. Ahmedov sarbadorlar harakatini manbalarga tayanib ob'ektiv yondashgan holda ijobiy baholaydi. Olimning fikricha, mamlakat mo'g'ullarning oyog'i ostida qolishi xavfi tug'ilganda “menman degan beklar” uni himoya qilishga qodir bo'lmagan bir sharoitda sarbadorlar xalqning joniga oro kirdilar. Sarbadorlar mustahkam himoya qilgan Samarqand shahri ostonasida mo'g'ullar katta talofatga uchrab, chekinishga majbur bo'lganlar. Buning sabablaridan biri sifatida Ilyosxo'ja qo'shinidagi otlarga vabo tarqalgani ham qayd etilgan. Boshqa tadqiqotlarda ham ushbu fikrlarni kuzatish mumkin. Jumladan, “Amir Temur jahon tarixida” kitobida “SHahar qamali uzoqqa cho'zilib, shaharliklar Samarqandni mardona muhofaza qilayotgan edilar, dushman ham shaharni ololmay, holdan toygan edi. SHu payt, kutilmaganda, dushman otlari orasida vabo tarqaldi va ko'p “ot o'ldikim, to'rt kishi arosida bir ot qolmadi. Va bu jihatdin barcha (mo'g'ul) parishon bo'lib qaytdilar. Ko'pi egarlarini orqalariga solib, tirkashlarini qo'ltiqlariga tutub ketdilar”, deb yoritilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida chop etilgan adabiyotlarda bildirilgan quyidagi fikr bahslidir: “Amirlar o'z boyligini o'ylab, tahlikali vaziyatda xalqni o'z ahvoliga tashlab qochib qolgach, Samarqand “knyazlarsiz” mudofaa qilinib, g'alabaga erishilgach, bir yil davomida boshqaruv quyi va o'rta tabaqalar respublikasi xarakteridagi adolat podsholigi o'rnatildi” [2,156]. Ba'zi tadqiqotlarda esa mazkur harakat salbiy baholangan. A. Ahmedov, H. Bobobekov mo'g'ullar otryadiga o'lat kelganligi sababli chekinishga majbur bo'lishgandan so'ng, hokimiyat osonlik bilan

sarbadorlarning qo'liga tegib, ular yurtida bezorilik va nohaqliklar qilganlar deb, "... sovet muarrihlari sarbadorlarni ... xalq huquqini himoya qiluvchi milliy qahramonlar darajasiga olib chiqilib, ular go'yo mo'g'ullar zulmiga qarshi xalq harakatining boshliqlari va Amir Temur bilan amir Husaynni esa xalq harakatini bostirishga uringan zolimlar qilib ko'rsatgan. Aslida esa, ular xo'jasizlik bag'ridan yuzaga chiqib qolgan avantiyurachilar edilar. Keyinchalik amirlar mamlakatda tartib o'rnatish jarayonida ularni qatl etib to'g'ri qilganlar" [3,205]. degan munozarali bahoni ham ko'ramiz. SHuningdek, tadqiqotlarda sarbadorlar mahalliy er va mulk egalariga qarshi ham kurash olib borganlari haqida taxminiy xulosa ham bor, ammo juzyani bekor qilingani to'g'risida ma'lumotlar berilmaydi. "Amir Temur jahon tarixida" kitobida "Sarbadorlarning peshvolari (rahbarlari) o'zlarining shaharni boshqara olmasliklarini ko'rsatdilar. Aslida bu tartibsizliklarga ularning o'zi yo'l qo'ygan edi" deb, ularning davlatni boshqarishdagi layoqatsizligi alohida ta'kidlangan.

B. Ahmedov fikricha, sarbadorlar g'alabasidan amir Husayn foydalanib, hiyla ishlatib, harakatning boshliqlarini qo'lga tushiradi va Abubakr Kalaviy bilan Xurdak Buxoriyni osib o'ldiradi. Mavlonzodani esa Temurbek dor ostidan qutqarib qoldi. Ibn Arabshohning asarida "sarbadorlar rahbarlarining barchasini Amir Temur o'ldirtirdi" [4,85]. deb yozilgan.

A. Ziy o sarbadorlar harakatiga baho bermaydi va amir Husayn sarbadorlarning taqdirini yakka o'zi hal qilganining sababi, Amir Temurning harbiy-siyosiy mavqei imkon bermaganida, deb hisoblaydi.

A.YU. YAkubovskiy, I. Mo'minov tadqiqotlarida sarbadorlar harakati rahnamolari bilan Amir Temur o'rtasida oldindan munosabatlar bo'lganligiga ishora qilingan, biroq aloqalar qanday vujudga kelgani aniqlanmagan edi. T. Fayziev bu munosabatlarni avvaldan bo'lganligi dalili sifatida sarbadorlar qirg'in qilingandan so'ng, Amir Temur bilan Husayn o'rtasida dushmanlik avjiga chiqqanini fakt sifatida keltiradi.

Nizomiddin SHomiy sarbadorlarni "bezorilar", Ibn Arabshoh esa, ularni "shuttorlar", "talovchilar", "buzuqilar", "qaroqchilar" degan salbiy fikrni bildirishadi. SHarafiddin Ali YAzdiy dastlab: "Ey xudo, gado mo'tabar bo'lib qolishidan saqlagin!" - deb, voqeaga salbiy baho bergan bo'lsa, bir paytning o'zida, amirlar eplay olmagan ishni sarbadorlar uddasidan chiqdilar, deb vaziyatni ijobiy tarzda izohlaydi. Ulardan farqli o'laroq, Muiniddin Natanziy o'z asarining "Samarqand sarbadorlari qissasi" nomli qismida sarbadorlarni vatanparvarlar sifatida tasvirlangan va ularning faoliyatini ijobiy baholab, hatto Mavlonozodani nasl nasabli "...Ilm tahsili uchun Samarqandga kelgan asli buxorolik aslzoda yigit", deb ta'riflagan. Ushbu manba tarjimoni sharqshunos olim G'. Karimov o'z maqolasida Muiniddin Natanziy asariga asoslangan holda, sarbadorlarni "xalq qahramonlari", bu harakatni esa, o'zbek xalqining buyuk va boy tarixidagi eng yorqin, iftixorli sahifalaridan biri bo'lib qoldi", degan fikrni ilgari suradi.

Sarbadorlar harakati faqat mo'g'ul bosqinchilariga emas, balki mahalliy amaldorlarga ham qarshi qaratilganligi fanda qayd etilgan. Ammo ular amalga oshirgan demokratik tadbirlar xususida aniq fikrga kelinmagan. Tarixchilar Xuroson va Samarqand sarbadorlar harakatining o'xshash tomonlarini yoritganlar, ammo bular orasidagi farqlarni to'la qiyosiy tahlil qilmaganlar. Fikrimizcha, farq bu harakatga

berilgan bahoda bo'lsa kerak. Tadqiqotlarda Xuroson sarbadorlari faoliyati xalq harakati sifatida ijobiy baholangan.

Umuman olganda sarbadorlar harakati tadqiqotlarda turlicha izohlangan: Ba'zi tadqiqotchilar sarbadorlar harakatini salbiy baholab, ularning rahnamalarini avantiyurachilar, deb ayblashlarini, ularning qatl etilishini ma'qullashlarini xato deb o'ylaymiz. Qayd etish kerak, bu harakat mo'g'ullarga qarshi ko'tarilgan Mahmud Tarobiy qo'zg'olonining mantiqiy davomidir. Sarbadorlar harakati masalasining to'liq bahosi fanda hali o'zining uzil-kesil echimini olmagan va harakatning tarixiy ahamiyati xususida yaxlit bir to'xtamga kelinmagan. Fikrimizcha, keyingi yangi tadqiqotlarda birlamchi manbalarga tayangan holda izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq. SHu o'rinda Muiniddin Natanziy "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asaridagi mavzuga doir ma'lumotlar hanuzgacha tadqiqotlarga jalb qilinmaganligini aytish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Мухаммад Али. Сарбадорлар. Тарихий роман. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Нашриёт – матбаа бирлашмаси, 1992. 1-китоб. – 256 б.,
2. Ҳидоят Г.А. Менинг жонажон тарихим. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 196
3. Яздий Шарафуддин Али. Зафарнома / Мухаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий таржимаси. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткич муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад. Ҳ. Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 320. 205-изоҳ
4. Арабшоҳ Ибн. Амир Темур тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. 1-китоб. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – Б. 224.
5. Натанзий Муъиниддин. Мунтахаб ут-таворих / Ғулом Карим таржимаси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2000. – № 3. – Б. 14-17.